

“QO‘SHCHINOR” VA “TANOVOR” KUYLARI ASOSIDA TALABALARDA MILLIY O‘Z-O‘ZINI ANGLASH HISSINI RIVOJLANTIRISH

Davletov Mayliboy Yusupovich

Urganch davlat pedagogika instituti (UrDPI) mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21973627>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek xalq musiqa merosining durdona namunalaridan hisoblangan “Qo‘shchinor” va “Tanovor” kuylarining badiiy-estetik, g‘oyaviy-falsafiy va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Mazkur mumtoz asarlarning ramziy ma‘nolari, hududiy ijrochilik maktablari (Farg‘ona, Buxoro, Xorazm)dagi talqinlari, ularning maqom san‘ati, adabiyot va milliy teatr hamda raqs bilan uyg‘unligi yoritib berilgan. Shuningdek, musiqa ta‘limi jarayonida ushbu kuylarni tahlil qilish va amaliy ijro etish orqali bo‘ljak pedagog kadrlar va talabalarda milliy o‘z-o‘zini anglash, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, estetik did hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: “Qo‘shchinor”, “Tanovor”, milliy o‘z-o‘zini anglash, cholg‘u ijrochiligi, xalq musiqasi, ma‘naviy meros, musiqiy-estetik tarbiya, ijrochilik mahorati, hududiy maktablar.

Давлетов Майлибой Юсупович – самостоятельный соискатель Ургенчского государственного педагогического института (УрГПИ)

РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МЕЛОДИЙ «КУШЧИНОР» И «ТАНОВОР»

Аннотация. В данной статье анализируются художественно-эстетические, идейно-философские и педагогические возможности шедевров узбекского музыкального наследия — мелодий «Кушчинор» и «Тановор». Освещаются символическое значение этих классических произведений, особенности региональных исполнительских школ (Ферганской, Бухарской, Хорезмской), а также их интеграция с искусством макома, литературой, национальным театром и танцем. Обоснованы механизмы формирования национального самосознания, духовно-нравственных ценностей, эстетического вкуса и профессиональных компетенций будущих специалистов-педагогов в процессе теоретического анализа и практического исполнения данных мелодий.

Ключевые слова: «Кушчинор», «Тановор», национальное самосознание, инструментальное исполнительство, народная музыка, духовное наследие, музыкально-эстетическое воспитание, исполнительское мастерство, региональные школы.

Davletov Mayliboy Yusupovich – Independent Researcher at Urgench State Pedagogical Institute (UrSPI)

DEVELOPING NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN STUDENTS BASED ON THE MELODIES "KOSHCHINOR" AND "TANOVOR"

Abstract. This article analyzes the artistic-aesthetic, ideological-philosophical, and pedagogical potential of "Koshchinor" and "Tanovor", the masterpiece melodies of Uzbek folk music heritage. The symbolic meanings of these classical pieces, variations across regional performance schools (Fergana, Bukhara, Khorezm), and their synthesis with the art of maqom, literature, national theater, and choreography are highlighted. Furthermore, the paper

substantiates the pedagogical mechanisms for enhancing national identity, moral values, aesthetic perception, and professional competence in students through the musical analysis and practical performance of these historical works.

Keywords: "Koshchinor", "Tanovor", national self-consciousness, instrumental performance, folk music, spiritual heritage, musical-aesthetic education, performing skills, regional schools.

Biz yangi O'zbekistonni qurish yo'lida borar ekanmiz, avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, musiqiy-estetik tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu islohotlar yo'lida o'zbek cholg'u ijrochiligining tarixiy taraqqiyotiga asos bo'luvchi musiqa namunalari mavjud bo'lib, ulardan biri "Qo'shchinor"dir.

"Qo'shchinor" o'zbek xalq musiqa merosining eng nafis va dilga yaqin namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu qo'shiq xalq orasida uzoq yillardan buyon sevib tinglanib kelinadi. Uning ohangida samimiyat, muhabbat, sadoqat va inson qalbining nozik kechinmalari mujassam bo'lgan.

"Qo'shchinor" nomining o'zi ham ramziy ma'noga ega bo'lib, ikki chinor daraxti orqali do'stlik, muhabbat va abadiy birlik timsoli ifodalanadi. Sharq xalqlari madaniyatida chinor daraxti muqaddas va qadimiy daraxtlardan biri hisoblanadi. U uzoq umr, mustahkamlik va sadoqat ramzi sifatida qadrlanadi. Shu sababli ham "Qo'shchinor" qo'shig'ida chinor obrazi insoniy tuyg'ular bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi[30].

"Qo'shchinor" xalq qo'shiqlariga xos ravishda og'zaki ijod mahsuli sifatida shakllangan. Uning aniq muallifi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Asar avloddan-avlodga o'tib, xalq hofizlari va sozandalari tomonidan sayqallanib kelgan. Vaqt o'tishi bilan turli hududlarda qo'shiqning yangi variantlari paydo bo'lgan. Har bir hofiz unga o'z uslubi va talqinini qo'shgan. Natijada "Qo'shchinor" xalq qalbidan chuqur joy olgan mumtoz qo'shiqlardan biriga aylangan.

Qo'shiqning asosiy mavzusi insoniy muhabbat va sadoqatdir. Unda yor vasli, hijron azobi, sog'inch va samimiy tuyg'ular madh etiladi[107]. Tabiat obrazlari orqali inson qalbidagi kechinmalar ifodalanadi. Ayniqsa, chinor daraxtining tasviri qo'shiqning badiiy kuchini oshiradi. Qo'shiq matnidagi poetik ifodalar tinglovchida chuqur hissiy taassurot uyg'otadi. Shu jihatdan "Qo'shchinor" nafaqat musiqiy, balki badiiy meros namunasi sifatida ham katta ahamiyatga ega.

"Qo'shchinor" kuyining ohangi juda mayin va lirik xarakterga ega. Unda xalq kuylariga xos ravonlik va samimiylik seziladi. Ohang asta-sekin rivojlanib, tinglovchini o'ziga rom etadi. Qo'shiq odatda sokin tempda ijro etiladi. Bu esa asarning mazmunini yanada ta'sirchan qiladi[22]. Ayrim ijrochilar esa qo'shiqni murakkab bezaklar va yuqori pardalarda kuylab, uning badiiy imkoniyatlarini yanada boyitadilar.

Qo'shiqning ritmik tuzilishi sodda va tabiiydir. Shu sababli u tinglovchiga tez yetib boradi. "Qo'shchinor"ni ijro etishda doira, dutor, tanbur, gijjak va nay kabi milliy cholg'ular keng qo'llaniladi. Ayniqsa, dutor va gijjak sadolari qo'shiqning lirik ruhini yanada kuchaytiradi. "Qo'shchinor" nafaqat professional sahnalarda, balki xalq orasida ham keng ijro etiladi. To'y marosimlari, milliy bayramlar va madaniy tadbirlarda ushbu qo'shiq tez-tez yangraydi. Ayniqsa, katta avlod vakillari ushbu qo'shiqni yoshlik xotiralari bilan bog'laydilar. Shu sababli ham "Qo'shchinor" xalqning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallaydi.

Qo'shiqning yana bir muhim jihati shundaki, u inson qalbida ezgulik va poklik tuyg'ularini uyg'otadi. Unda insoniy mehr, sadoqat va muhabbat ulug'lanadi. Shu bois "Qo'shchinor" yillar o'tishi bilan ham o'z qadrini yo'qotmay kelmoqda. Har bir davr san'atkorlari ushbu qo'shiqni yangi talqinlarda ijro etib, uning umrini yanada uzaytirmoqdalar.

Bugungi kunda ham "Qo'shchinor" o'zbek milliy musiqa merosining eng go'zal namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. U yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa maktablari, san'at kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida ushbu qo'shiq ijrochilik mahoratini oshirish uchun o'rganiladi. Bu esa "Qo'shchinor"ning kelajak avlodlar uchun ham muhim ma'naviy meros bo'lib qolishini ta'minlaydi.

"Tanovor" o'zbek xalq musiqa san'atining eng nodir va betakror namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu kuy va qo'shiq xalqning ko'p asrlik ma'naviy merosi, estetik qarashlari hamda nozik his-tuyg'ularini o'zida mujassam etgan. "Tanovor" o'zining nafis ohangi, chuqur lirizmi va dilbar kuy tuzilishi bilan xalq qalbidan mustahkam o'rin egallagan. U nafaqat musiqa asari, balki xalq ruhiyati, milliy qadriyatlari va ma'naviy olamining yorqin ifodasi sifatida ham qadrlanadi.

"Tanovor" so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ushbu atamani fors-tojik tilidagi "tan" va "ovar" so'zlari bilan bog'laydilar. Bu so'zlar "qalbni rom etuvchi", "ruhni o'ziga tortuvchi" degan ma'nolarni anglatadi[73]. Haqiqatan ham "Tanovor" kuyini tinglagan inson uning sehrli ohanglari ta'sirida chuqur hissiyotlarga beriladi. Kuydagi mung, sog'inch, muhabbat va samimiyat tinglovchi qalbiga bevosita ta'sir qiladi.

"Tanovor"ning shakllanish tarixi juda qadimiy davrlarga borib taqaladi. Ushbu kuy xalq orasida og'zaki tarzda avlodlardan avlodga o'tib kelgan. Dastlab u xalq sayillari, to'ylar va turli madaniy yig'inlarda ijro etilgan. Keyinchalik hofizlar va sozandalar tomonidan sayqallanib, yanada mukammal shaklga ega bo'lgan. "Tanovor"ning turli hududlarda bir necha variantlari shakllangan bo'lib, har bir ijrochi unga o'ziga xos bezak va talqin qo'shgan.

O'zbek xalq musiqa san'atida "Tanovor"ning bir necha turlari mavjud. Ular orasida "Farg'ona tanovori", "Andijon tanovori", "Qo'qon tanovori" kabi variantlar mashhurdir. Har bir variant o'ziga xos ohang va ijro uslubiga ega bo'lsa-da, ularning barchasida umumiy lirik ruh va xalqona samimiyat saqlanib qolgan.

"Tanovor" asosan muhabbat va insoniy kechinmalarni ifodalovchi kuy hisoblanadi. Uning ohangida sog'inch, hijron, armon va visol tuyg'ulari mujassam. Shu sababli ham ushbu kuy ko'pincha inson qalbining eng nozik hissiyotlarini aks ettiruvchi musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Kuyni tinglagan inson unda o'z hayotiy kechinmalarini his qiladi.

"Tanovor" kuyining asosiy xususiyatlaridan biri uning nihoyatda nafis va mayin ohangga ega ekanligidir. Kuy asta-sekin rivojlanib boradi va tinglovchini chuqur hissiy holatga olib kiradi. Unda xalq musiqasiga xos ravonlik va tabiiylik seziladi. Ayrim qismlarida esa kuchli dramatik ohanglar paydo bo'lib, kuy yanada ta'sirchan tus oladi.

Kuy odatda dutor, tanbur, gijjak, nay va doira kabi milliy cholg'ular jo'rligida ijro etiladi. Ayniqsa, dutor sadolari "Tanovor"ning lirik ruhini yanada kuchaytiradi. Gijjakning mungli ovozi esa kuyga alohida ta'sirchanlik baxsh etadi. Milliy cholg'ular uyg'unligi "Tanovor"ning musiqiy jozibasini oshiradi.

"Tanovor"ni ijro etish katta mahorat talab qiladi. Hofiz yoki sozanda kuy ruhiyatini chuqur his qilishi kerak. Nafasni to'g'ri taqsimlash, ohang bezaklarini mohirona bajarish va

hissiy holatni yetkaza olish ijrochidan katta tajriba talab etadi. Shu sababli ham “Tanovor” ijrochilik san’atining murakkab namunalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda “Tanovor” o‘zbek milliy musiqa madaniyatining ramzlaridan biri sifatida qadrlanadi. Musiqa maktablari va san’at oliygohlarida ushbu kuy ijrochilik mahoratini oshirish uchun o‘rgatiladi. Ko‘plab yosh hofiz va sozandalar “Tanovor”ni ijro qilish orqali milliy san’at an’alarini davom ettirmoqdalar.

“Tanovor” o‘zbek xalqining ma’naviy boyligini namoyon etuvchi bebaho merosdir. U inson qalbini poklaydi, ezgulikka chorlaydi va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantiradi. Ushbu kuy kelajak avlodlar uchun ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladigan nodir san’at namunasi bo‘lib qoladi.

“Tanovor”ning yana bir muhim jihati uning maqom san’ati bilan chambarchas bog‘liqligidir. O‘zbek mumtoz musiqasida maqom yo‘llari chuqur falsafiy va estetik mazmuni bilan ajralib turadi. “Tanovor” ham ana shu mumtoz an’alar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlangan. Kuydagi ohanglar ketma-ketligi, avj qismlarining asta-sekin rivojlanishi va hissiy kulminatsiyaga olib borishi maqom san’atiga xos xususiyatlarni eslatadi. Shu sababli ko‘plab musiqashunoslar “Tanovor”ni xalq kuylaridan maqomga yaqinlashgan yirik musiqiy asarlardan biri sifatida baholaydilar.

“Tanovor”ning ijro uslublari hududlarga qarab farqlanadi. Farg‘ona vodiysida ijro etiladigan variantlar mayin va lirik xarakteri bilan ajralib turadi. Bu hudud hofizlari kuyga ko‘proq nozik bezaklar va cho‘ziq ohanglar qo‘shadilar. Buxoro va Samarqand maktablarida esa “Tanovor” biroz salobatliroq va maqom yo‘llariga yaqin tarzda ijro qilinadi[75]. Xorazm ijrochilik maktabida esa kuy jo‘shqin va kuchli hissiyot bilan kuylanadi. Har bir hududning o‘ziga xos ijro an’analari “Tanovor”ning boy va rang-barang san’at namunasi ekanligini ko‘rsatadi.

“Tanovor” o‘zbek adabiyoti va she’riyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Ko‘plab shoirlar ushbu kuy ta’sirida she’rlar yozganlar. Kuydagi mung va lirizm shoirlarga ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Ayrim she’rlarda “Tanovor” muhabbat va armon timsoli sifatida tilga olinadi. Bu esa ushbu kuy nafaqat musiqa, balki adabiy-madaniy hodisa sifatida ham katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

“Tanovor”ning sahna san’atidagi o‘rni ham juda muhimdir. O‘zbek milliy teatrlarida ushbu kuy asosida turli sahna ko‘rinishlari yaratilgan. Ayniqsa, milliy raqs san’atida “Tanovor” alohida mavqega ega. Raqs ijrochilari kuy ohanglariga mos nafis va mayin harakatlar orqali inson qalbidagi nozik kechinmalarni ifodalaydilar. Shu sababli “Tanovor” raqsi o‘zbek milliy raqs san’atining eng go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi.

“Tanovor”ning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, u inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan ushbu kuy insonni sokinlikka, o‘ychanlikka va ichki mushohadaga undaydi. Kuydagi mayin ohanglar tinglovchining hissiyotlarini uyg‘otib, qalbida chuqur iz qoldiradi. Shu sababli ham ko‘plab insonlar “Tanovor”ni tinglaganda o‘z hayotidagi quvonch va armonlarni eslaydilar.

Musiqashunoslar “Tanovor”ni o‘zbek xalq musiqasining eng mukammal namunalaridan biri sifatida e’tirof etadilar. Kuyning melodik tuzilishi nihoyatda boy va murakkabdir. Undagi ohang o‘zgarishlari tabiiy va ravon kechadi. Shu bilan birga, kuy tinglovchini zeriktirmaydi,

aksincha, uni o'ziga tobora chuqurroq jalb etadi. Bu esa "Tanovor"ning haqiqiy san'at asari ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek kinosida ham "Tanovor" kuyidan keng foydalanilgan. Milliy filmlarda ushbu kuy insoniy tuyg'ularni ochib beruvchi muhim musiqiy vosita sifatida qo'llanilgan. Ayniqsa, muhabbat, ayriliq va sog'inch sahnalarida "Tanovor"ning yangrashi tomoshabin hissiyotiga yanada kuchli ta'sir qiladi.

Zamonaviy san'atkorlar ham "Tanovor"ga murojaat qilib kelmoqdalar. Estrada xonandalari ushbu kuyni zamonaviy usullar bilan qayta ishlashga harakat qilganlar. Biroq an'anaviy ijro usuli hanuzgacha eng qadrlanadigan talqin hisoblanadi. Chunki asl "Tanovor"ning ruhi aynan milliy ijro an'alarida yorqin namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda "Tanovor" xalqaro sahnalarda ham yangramoqda. Turli mamlakatlarda o'tkazilayotgan madaniyat festivallari va konsert dasturlarida ushbu kuy ijro etilib, xorijlik tinglovchilarda katta taassurot qoldirmoqda. Chet ellik musiqashunoslar ham "Tanovor"ning noyob melodik tuzilishi va hissiy ta'sirini yuqori baholaydilar[79]. Bu esa o'zbek milliy musiqa san'atining jahon madaniyatidagi o'rnini yanada mustahkamlamoqda.

"Tanovor"ning musiqiy tuzilishi nihoyatda nafis va murakkabdir. Kuy asta-sekin rivojlanib boradi. Dastlabki qismlarida sokin va mayin ohanglar ustunlik qiladi. Keyinchalik esa kuy avjga chiqib, hissiy jihatdan yanada kuchli tus oladi. Ushbu rivojlanish tinglovchini o'ziga rom etadi va kuy bilan birga hissiy sayohatga olib kiradi.

Kuyda milliy musiqaga xos ravonlik va tabiiylik yaqqol seziladi. Ohanglarning bir-biriga silliq o'tishi "Tanovor"ning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shu bilan birga, kuyda murakkab bezak va ohang o'zgarishlari ham uchraydi. Bu esa ijrochidan katta mahorat talab qiladi.

"Tanovor" odatda dutor, tanbur, gijjak, nay va doira kabi milliy cholg'ular jo'rligida ijro etiladi. Ayniqsa, tanbur va gijjak sadolari kuyga chuqur mung va lirik ruh bag'ishlaydi. Doira usuli esa kuy ritmini boyitib, unga joziba qo'shadi. Milliy cholg'ular uyg'unligi "Tanovor"ning ta'sirchanligini yanada oshiradi.

"Tanovor" o'zbek xalqining ma'naviy boyligini aks ettiruvchi bebaho san'at namunasi hisoblanadi. Uning nafis ohanglari, chuqur mazmuni va samimiy ruhi inson qalbini ezgulikka chorlaydi. Ushbu kuy asrlar davomida xalq bilan birga yashab kelmoqda va kelajak avlodlar qalbida ham yashashda davom etadi.

"Qo'shchinor" va "Tanovor" kuylari talabalarda milliy o'z-o'zini anglash hissini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu kuylar orqali talabalar milliy musiqiy merosni chuqur his etadi, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Kuylarni tinglash, tahlil qilish va amaliy ijro etish jarayonida ularda estetik tafakkur, kasbiy mahorat, ijodiy yondashuv hamda milliy identifikatsiya shakllanadi. Talabalarning ma'naviy barkamolligi, milliy ong va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida bola shaxsini axloqiy shakllantirish: ped. fan. dok. ... diss. - T.: O'zDJTU, 2000. – B. 305.
2. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. - T.: Fan, 1995. – B. 117.
3. Rejimetova N.I. O'zbek xalq cholg'ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish

metodikasi. Ped. fan. fals. dok. ...diss. avtoref. Toshkent. 2019. – B. 12.

4. <https://cuberleninka.ru>.

5. Baxtiyorov S.Q. O'zbek xalq cholg'u asboblarning shakllanish tarixi. Scence and education journal. 2023. – B. 20.

6. Azimov B., Azimova S. Cholg'ularning tarixiy taraqqiyoti. International Scentific – onleine conference. Italiya. 2023. – B. 69 – 74.